

ХОЖА АХМАД ЯССАВИЙ ВА СУЛАЙМОН БОҚИРГ'ОНИЙ ТА'ЛИМОТЛАРИДА МА'НАВИЙ- АХЛОҚИЙ Г'ОЯЛАРНИНГ АКС ЭТИШИ

O'razmetov Mangubek Tursunbayevich, Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti "Falsafa" kafedrasida tadqiqotchisi

ОТРАЖЕНИЕ

ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В УЧЕНИИ ХОДЖА АХМАДА ЯССАВИ И СУЛЕЙМАНА БОКИРГАНИ

Оразметов Мангубек Турсунбаевич, научный исследователь кафедры "Философия" факультета социально-экономических наук Ургенчского государственного университета

REFLECTION OF SPIRITUAL AND MORAL IDEALS IN THE TEACHINGS OF KHOJA AHMAD YASSAVI AND SULAYMON BAKIRGANI

Orazmetov Mangubek Tursunbayevich, researcher of the "Philosophy" department of the Faculty of Socio-Economic Sciences of Urganch State University

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'fiylikning ikki ko'zga ko'ringan mutasavviflari Xoja Ahmad Yassaviy hamda Sulaymon Boqirg'oni haqida so'z boradi. Movarounnahrda "Yassaviya" tariqati va uning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri Sulaymon Boqirg'oni haqidagi tasavvuf tarixida tutgan o'rni, hamda ma'naviy merosida inson o'z-o'zini nazorat qilish, irodasini mustahkamlash va qayta tarbiyalash kabi axloqiy kategoriyalar ochib berilgan. Bundan tashqari turkiy tasavvuf va hikmatnavislikni rivojlantirishdagi xizmatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, Ahmad Yassaviy, "Yassaviya" tariqati, komil inson, Sulaymon Boqirg'oni (Hakim ota), poklik va halollik, saxovat va rahm-shafqat, ilm va ma'rifat, tariqat, yoshlar tarbiyasi.

Abstract: This article discusses two prominent Sufi mystics, Khoja Ahmad Yassawi and Sulayman Boqirghani. The place of the "Yassaviyya" order and one of its prominent representatives, Sulayman Boqirghani, in the history of Sufism in Transoxiana, as well as the moral categories of self-control, strengthening of the will, and re-education of a person in their spiritual heritage, are revealed. In addition, their services in the development of Turkic Sufism and wisdom writing are revealed.

Key words: Sufism, Ahmed Yassavi, "Yassaviya" sect, perfect human being, Suleiman Bakirgani (Hakim father), purity and honesty, generosity and compassion, knowledge and enlightenment, sect, youth education.

Аннотация: В данной статье рассказывается о двух выдающихся мистиках суфизма Ходже Ахмеде Яссави и Сулеймане Бакиргани. В Маварауннахре рассмотрена роль секты «Яссавия» и одного из ее видных представителей Сулеймана Бакиргани в истории суфизма, а также таких нравственных категорий, как самоконтроль, укрепление и перевоспитание человека в его духовном наследии. Кроме того, раскрыты его заслуги в развитии турецкой мистики и мудрости.

Ключевые слова: суфизм, Ахмед Яссави, секта «Яссавия», совершенный человек, Сулейман Бакиргани (отец Хаким), чистота и честность, щедрость и сострадание, знание и просвещение, секта, воспитание молодежи.



<https://orcid.org/0009-0008-8304-3087>

e-mail:

mangubekoficial@gmail.com

KIRISH. Tasavvuf maktabining yirik namoyandalari asarlarida aks etgan ijtimoiy qarashlarda diniy tushunchalar, shariatning huquqiy me'yorlari hamisha falsafa va ma'naviy tarbiya bilan bog'liq holda o'zaro uyg'unlikda rivojlanib kelgan. Ular insoniyat taraqqiyoti tarixining bir bo'lagida mutlaqo yangi va o'ziga xos ma'rifiy, tarbiyaviy ta'limotlar yaratdilar. Ularning ilmiy qarashlari, ta'lim-tarbiya sohasidagi g'oyalari amalda XXI asrga qadar yashab kelayotir. Ahmad Yassaviy va "yassaviya" tariqati ma'naviy, ma'rifiy merosi ham shular qatoridadir.

Ahmad Yassaviy Toshkent va Sirdaryo atrofidagi, Sayhun ustidagi dashtlarda yashagan ko'chmanchi Turklar orasida kuchli ta'sirga ega bo'lgan shayxdir[1]. Xoja Ahmad Yassaviy o'ziga qadar o'tgan mutafakkirlarning komil inson va uni tarbiyalash haqidagi fikrlarini yuksak hurmat qilgan. Chunki X-XI asrlarda yashab ijod qilgan bir qator buyuk allomalar komil inson tushunchasini payg'ambarlarga nisbatan ishlatganlar. Ularning izdoshlari va davomchilari bo'lgan avliyolar, allomalar, fozil va solih insonlarning ijtimoiy hayotdagi maqomlari ularniki bilan qiyoslangan, komillik darajasi belgilangan. Xoja Ahmad Yassaviy ham yillar davomida ilmuni rivojlantirib, olamni mushohada qilib bu fikrlarga qo'shiladi. Chunki u "nodon bilan ulfat" bo'lib ham ko'rgan. Lekin bunday "ulfatchilik"lardan bag'ri kuyib, jondan to'yan.

Ahmad Yassaviy fikricha, mabodo, egrilik, nohaqlik kabi salbiy odatlar yo'l deb ataladigan bo'lsa, bunda nodonning yo'li noto'g'ri, egri yo'ldir. Shuning uchun bunday shaxsni yaxshilik, ezgulik, to'g'rilikka yo'llash natijasiz bir harakatdir. Chunki nodon o'zganing fikrini qabul qilmagani uchun ham nodon. Natijasiz harakat esa dono, bilimdon odam uchun hijron dog'iday azobli, uning qalbi dardlidir.

*Dog'i hijron ezdi bag'rim, qonim dardmand,
Dono tufrog', nodonlarning ko'ksi baland.
Oyat, hadis bayon qilsam, qilmas pisand,
Ko'ksim teshing, dard-u g'amga to'ldim mano*

[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, Ahmad Yassaviyning bir qancha shogirdlari orasidan buyuk shaxslar yetishib chiqqan. Jumladan, uning shogirdi Sulaymon

Boqirg'oniy ulug'lar ulug'i, jahonga mashhur bo'lgan turkiy tasavvuf ilmi va she'riyatining taniqli arbobi hisoblanadi. U ustoz Ahmad Yassaviyning ilm va mehr bulog'idan bahramand bo'lganligini quyidagi satrlar orqali o'z ijodida ifodalaydi:

*Shariati orasta, tariqati payvasta,
Haqiqatda shoyista shayxim Ahmad
Yassaviy.
Shariatni so'zlagan, tariqatni izlagan,
Haqiqatni bildurgan shayxim Ahmad
Yassaviy.*

Yoki:

*Xizr birla suhbatlik, Ilyos bilan ulfatlik,
Haq qoshinda hurmatlik shayxim Ahmad
Yassaviy.
Turkistonga boroling, xizmatida bo'loling,
O'lush bersa oloing, shayxim Xoja Ahmad
Yassaviy [4].*

Shogirdlar tomonidan bitilgan ushbu satrlar she'riy nafosat, fikrlar uyg'unligi, ma'no va mazmun to'qligi, tilining shirinligi jihatdan ham ustoz – Xoja Ahmad Yassaviy tili, e'tiqodi, bilimiga yaqindir. Ya'ni bu to'rtliklar Sulaymon Boqirg'oniyning o'z ustoziga e'tiqodi, mehr-oqibati, din-shariatiga muhabbati, axloq-odobga diyonati haqida bayon qiladi. Bugungi kunda ustoz-shogird munosabatlarini boyitishda bu misralar yoshlarga ibrat va saboq bera oladi.

MUHOKAMA. Sulaymon Boqirg'oniy ustozining tariqati qoidalarini yanada chuqurlashtirib keng xalq ommasiga yetkazgan. Qul Sulaymon taxallusi bilan yassaviyona sodda, ravon uslubda she'rlar yozgan. O'z asarlarida islomni, shariat va tariqat qoidalarini targ'ib qilgan, kishilarni u dunyoni o'ylab yashashga, Allohning karamidan bahramand bo'lishga da'vat etgan. Sulaymon Boqirg'oniy ma'rifatni Allohni tanish, uning nazariga tushish, deydi.

Ustoz Ahmad Yassaviy Sulaymon Boqirg'oniydan farqli ravishda, insonlarning o'ziga xos tasnifini ishlab chiqadi. Bu tasnif quyidagicha:

- olim inson;
- odil inson;
- odobli inson;
- hur inson;
- ixlosli inson;

-kamtarin inson
komil inson;
-oshiq inson [5].

Shu o'rinda Sulaymon Boqirg'oni ham insonlarni tasnif etmasa-da, bu tasnifdan yuqori darajada foydalangan. Bizning fikrimizcha, Sulaymon Boqirg'oni tomonidan ishq masalasiga qayta-qayta murojaat qilinishining bosh sababi sifatida Xoja Ahmad Yassaviyning oshiq inson haqidagi g'oyalari bilan bog'liqdir. O'z o'rnida Boqirg'oni ham Allohga oshiq bo'lishdek g'oyaga xayrixohlik bildirib, qator hikmatlarini shu mavzuga bag'ishlagan.

Oliy muhabbatni Allohga bo'lgan muhabbat, deb tushuntiradi. U tariqat yo'lini komil insonni tarbiyalash yo'li, jannatga eltuvchi yo'l, deb biladi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra insonning bosh maqsadini muhabbat, poklik tashkil qiladi. Olamga, borliqqa bo'lgan muhabbat Xudo ishq sifatida talqin qilinadi. Bunday muhabbat esa odamdan faqat yuqori darajadagi ko'ngli poklik va nafs ehtiyojlaridan ozod bo'lishni talab etadi. Bu fikrlari bilan Sulaymon Boqirg'oni rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Ma'lumki, tasavvuf dil pokligi va Ruh komilligiga o'rgatadigan ta'limotdir. Tasavvufdagi ko'p fikrlar nafs va axloq, Ruh va Ishq to'g'risidadir. Boqirg'oni ilohiy ishq haqidagi pedagogik, axloqiy qarashlari quyidagi satrlarda yorqin aksini topgandir:

*Mening jonim sening
ishqing bilodur,
Tanim ojiz, vale jonim
o'lodur.*

*Bu ishq gar bo'lmasa
men netkay erdim,*

*Qamut ohim menim
ishqim qilodur... [6]*

Qul Sulaymon she'rlari mazmunini ilohiy ishq vasfi, tariqat va tasavvuf g'oyalari talqini tashkil qiladi:

*Oshiq bo'lub, daryosiga cho'msam, botsam,
Mosuvalloh pardasini kechib o'tsam,
O'zdin kechib muhabbatda sizib oqsam,
Sofiy bo'lub, hazrat tobo borg'im kelur [7].*

Uning hikmatlarida payg'ambarlar, mashhur shayxlar hayoti va faoliyatining qaysi bir jihatlari o'z aksini topgan. Ayniqsa, shoirning o'z ustози Ahmad Yassaviy ta'rifidagi misralari e'tiborga molik:

Subhon izimni viridi shayxim Ahmad
Yassaviy,

Arslon bobom yetkurdi shayxim Ahmad

Yassaviy.

Qul Sulaymon fikricha, inson dunyoga ko'ngil qo'ymasligi, uning botqog'idan o'zini xalos eta olishi lozim, shundagina u haqiqiy maqsadiga yetisha oladi. Tasavvuf olamining Uvays Qaraniy, Ibrohim Adham, Shibliy, Sarri Saqatiy, Ma'ruf Karxiy, Junayd Bag'dodiy, Boyazid Bistomiy, Yusuf Hamadoniy va uning shogirdi Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Ali Romitaniy, Shamsiddin kulol, Bahovuddin Naqshband, Alouddin Attor, Muhammad Porso, Yoqub Charxiy, Xoja Ahror Vali kabi yana ko'plab yirik namoyandalari nomlari va ularning tarixdagi xizmatlarini hozir qariyb barcha kitob mutolaa qiluvchi o'quvchilar juda yaxshi biladi. Zero, ularning har biri o'z davrida shaxs ma'naviyatini rivojlantirishga oid targ'ibot ishlarini amalga oshirganlar.

Rivoyat qilishlaricha, hayotdagi iqtidorli kishilarning oliy namoyandalari anbiyo (nabilar), avliyo (valilar) xalqni Haqqa yetaklovchi, ularga Haqni tanituvchi payg'ambarlar ham qariyb xuddi shunday vazifani bajarganlar va ishlarining samaralari darajasida yuksak obro'-e'tiborga ega bo'lganlar. Bu holatni bugungi kunga qiyoslaydigan bo'lsak, hozir ham ilm ahli, olimlar, fozillar, mutafakkirlar, ijodkorlar va har bir sohaning o'z murabbiylari keng omma va yoshlarga turmush mashaqqatlarini yengib o'tishni o'rgatib, ularning ongiga ilm durdonalarini yetkazib, hayot haqiqatlarini anglab yetishlariga yordam berib, katta e'tiborga loyiq bo'ladilar.

Ma'rifat daryosinda g'avvos bo'lub,

Muhabbat gavharlarin olg'um kelur.

Tariqat maydoninda parvoz qilib,

Ul tubo daraxtiga qo'ng'im kelur [8].

NATIJARLAR. Sulaymon Boqirg'oniyning tasavvufiy ilm-ma'rifat hosil qilib, tariqat qoidalari va amallarini o'zlashtirib, ustozidan xalq irshodiga [9] ruxsat olganidan keyin ham faqirlik yo'lini tanlab, biror yerda muqim uy-joy qilmasdan, shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, xalqni ilm-ma'rifatga, hukmdorni imon-e'tiqod, insof-diyonatga boshlovchi, jamiyat rivoji uchun xizmat qiluvchi bilimlarni targ'ib qilgan. U hikmatlarida mehr, muhabbat tuyg'ularini tarannum qiladi. Ishqni har narsadan, hatto, zuhd va taqvodan ham ustun

qo'yadi. Uni yashashning mazmuni, asosi, deb hisoblaydi.

Xudoyingni bilmassan, nega shukr qilmassan,
Otong-onong barchasi qaro yerga kirdiyo.
Tuv'g'on odam onodin, qurug' qolmos o'lmakdin,
Ushbu yurgan odamlar "valloh" o'lar tediyo [10].

Bu satrlar barcha xalqni ogohlantiruvchi shukronalik tuyg'usini, nafsdan qochish, bu dunyo bir vaqtinchalik dunyo ekanligini anglatuvchi, ta'lim-tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan misralardir. Komillikning asosini u hamma vaqt tarbiya, ilm ular vositasida aqlni peshlab borishi hamda ma'naviy, ruhiy poklikda deb bilgan. Bu kabi ma'rifiy, insonparvarlikni targ'ib qiluvchi qarashlar shoirga xalq orasida katta shuhrat keltiradi.

Mutafakkir asarlaridagi insonparvarlik, barkamollik, mehnatsevarlik va sabr-toqatli, insofli, diyonatli bo'lishga undovchi inson aql-zakovatiga bo'lgan ishonch, insonning ma'naviy kuchi va qobiliyati, ma'naviy-ruhiy pokligi xususidagi falsafiy mulohazalari bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgan emas.

XULOSA. Xoja Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniy ma'naviy merosini o'rganish hamda Yassaviylik tariqatini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, bu tariqat Xudo vasliga yetishning o'ziga xos yo'lini tanlagan va turli amaliy marosimlarni bajarishda boshqa suluklardan farq qilsa ham, mohiyati va mazmuni jihatidan ular orasida mushtarak va o'xshash tomonlar ko'p. Bu ta'limotlar to'g'rilik, sofdillik, jabr-zulmga norozilik, poklik va halollik, saxiylik va mehr-shafqat, ilm-ma'rifat, kasb-hunarni egallash, adolat uchun kurash, imon-e'tiqodli bo'lish, mehnat bilan mashg'ul bo'lishni targ'ib qildi, yaramas illatlarni qoraladi. Bu tariqatlarning aynan mana shu jihatlari bugungi kun yoshlar tarbiyasida qimmatlidir.

Butun dunyoda tasavvufning tarixiy ildizlarini xalqlar dunyoqarashi, yashash va ijod qilish manbaiga aylantirishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan. Hozirgi davrda Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniy ta'limotiga murojaat etish, bir tomondan, serqirra va murakkab hodisa hisoblanadigan shaxs ma'naviyatini hamda axloqiy jihatlarni shakllantirishning tarixiy-an'anaviy yo'llarini o'rganish uchun zarurdir. Zero, shaxs ma'naviyati va

axloqi tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan dunyoda o'zligimizni anglash hamda saqlab qolish, milliy qadriyatlarimizni butun umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib o'sib kelayotgan yosh avlodlarga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur.

Ikkinchidan, mustabid tuzum davrida xalqimizning tarixiy-ma'rifiy merosini to'la va keng tadqiq etishga, yirik din va tasavvuf namoyandalarining ma'naviy tarbiyaga oid merosidan foydalanishga imkon berilmadi. Inson ruhiyatini va ma'naviy olamini boyitishga yo'l qo'yilmadi, shuning uchun ham Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniyning falsafiy qarashlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish zaruriyatini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniy falsafiy merosining ma'naviy tarbiyaga, axloqqa oid qirralari, ularning ma'naviy va ma'rifiy rivojlanish bosqichlarida tutgan o'rni va ahamiyati shu paytgacha maxsus tadqiq qilinmagan. Holbuki, mustaqillika erishgan xalqimiz mafkurasini, umuman, yoshlarimizning g'oyaviy-siyosiy ongini tarbiyalashda Sulaymon Boqirg'oniy ta'limoti muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy tarbiya asoslarini yirik fundamental darajalarda o'rgangan olimlarimiz tomonidan shaxs ma'naviyatining takomillashuv bosqichlari yoki ma'rifat yo'llari sifatida ibrat ko'rsatish, ilmga intilish, riyoatga (ya'ni qanoatli bo'lishga) o'rgatish va mehr ko'rsatish alohida ta'kidlanadi[11]. Sulaymon Boqirg'oniy qarashlari ilmga intilish va riyoatga o'rgatish tarbiyasiga to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdiki, shoir va olimlarda ilm-ma'rifat to'plash va uni yoshlarga yetkazish asosiy o'rinda turadi. Bu esa X-XII asrga Movarounnahrda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlarini ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy hayot tarzi belgilab berishini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurrahman GÜZEL. Süleyman Hakim'in Bakirgan'ı kitabı (3 baskı). Ankara-2008. Sayfa 47.
2. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1992. 40-бет.
3. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. (Ҳикматлар куллиёти). –Т.: О'zbekiston НМИУ, 2011. –Б. 56.
4. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1992. 195 бет.

5. Salih AÇIKGÖZ. Felsefi Bir Problem Olarak Ahmed Yesevî'de İnsan. Ankara: Ankara Yıldırım Beyazıt Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. Felsefe Anabilim Dalı'nda Yüksek Lisans tezi. 2020. S. 67-93.
6. Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби. -Т.: Ёзувчи, 1991.-Б.6.
7. www.kh-davron.uz.
8. www.kh-davron.uz.
9. Иршод – тўғри йўлга бошлаш, тўғри таълим бера олиш; Муршид – диний-дунёвий масалалар юзасидан пайдо бўладиган саволларга жавоб топиб беришга қурби етадиган, махсус малака ва тажрибага эга бўлган илмли инсондир.
10. Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби. Т.: Ёзувчи, 1991.-Б.41.
11. Иномова М. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. – Т.: Фан, 1999.

